

**UDK.:619:636.92:577.1**

**QUYONLARNING O'SIB VA RIVOJLANISHIGA HAMDA  
SAQLANUVCHANLIK DARAJALARIGA BIOSTIMULYATORLARNING  
TA'SIRINI O'RGANISH.**

**Habibullayev S.** - magistr

**Islomov X.I.** - assistent

**Ibragimova F.D.** - assistent

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada quyonlarning o'sib va rivojlanishiga hamda saqlanuvchanlik darajalariga biostimulyatorlar Vinoral, Spektra vit A D<sub>3</sub>E-122, hamda Introvitning ta'sir doiralari berilgan.

**Summary:** The scientific article describes the effects of biostimulants Vinoral, Spektra vit A D<sub>3</sub>E-122, and Introvit on the growth and development of rabbits, as well as the levels of preservation.

**Kalit so'zlar:** Quyon, guruh, preparatlar, doza, Vinoral, Spektra vit A D<sub>3</sub>E-122, Introvit, saqlanuvchanlik, tirik vazni.

**Key words:** Rabbit, group, preparations, dosage, Vinoral, Spectra vit A D<sub>3</sub>E-122, Introvit, storage life, live weight.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda chorvachilikni, xususan, quyonchilikni rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3-mart 2021 yildagi «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ 5017-sonli qarorini ta'kidlash mumkin. Bu qarorda quyonlar uchun to'la qiymatli, yuqori oqsilli ozuqalar ishlab chiqarish uchun yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish yo'li bilan quyonchilik tarmog'ining ozuqa bazasini mustahkamlash; quyonchilik mahsulotlarini etishtirish va uni qayta ishlash sohasida ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni tashkil qilish nazarda tutilgan. Bugungi kunda quyonchilik katta e'tibor qaratilyotgan sohalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ona quyonlarni to'yimliligi yuqori va sifatli oziqlantirish ulardan sog'lom nasl olishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldaggi PQ-120-sodan qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dastur (keyingi o'rnlarda-Dastur) chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirish, respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilashga qaratilgan dasturda bugungi kunda respublikamizda 254 ta quyonchilik yunalishlari tashkil etilgan. Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i sifatida keng o'rin egallaydi. Bu soha aholini turli tuman iste'mol tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlaydi. Aholiga qishloq

xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib berishda quyonchilik sohasi ham keng salmoqqa ega bo‘lib hisoblanadi.

**Materialarni tekshirish uslublari va maqsadlari.** Qo‘lanilayotgan preparatlarning katta yoshdagi quyonlarning o‘sib va rivojlanishiga ta’sir doiralarini o‘rganish maqsadida “Shinshilla” zotiga mansub 30 kunlik quyonchilik xo‘jalikdan olib kelinib kafedra viariyasiga joylashtirildi va ulardan xar biridan 10 boshdan qilib xuddi yuqoridagidik turta guruh tuzildi. Ulardan birinchisi qiyosiy nazorat bo‘lib xo‘jalikdan olib kelingan oziqa bilan 30 kun davomida oziqlantirildi. Ikkinci, uchunchi va to‘rtinchi tajriba guruhlariga biostimulyatorlar qullanmasiga asosan ichimlik suv va oziqasi orqali berildi. Biostimulyatorlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari bir oy ichida quyonlardan olingan trik vaznining o‘sish foizi M.V.Krylovning(1969) takomillashgan usulida aniqlandi.

**Olingan natijalar.** Ilmiy tadqiqot ishlarining laboratoriya tajribalari uchun «Eshniyoz bobo» chorva dalasidan 30 kunlik “Shinshilla” - zotiga ma’nsub quyonlardan hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya kafedrasiga qarashli vivariyasiga olib kelinib katakchalarga joylashtirildi. Ulardan birdaniga 4 ta guruh tuzildi. Jumladan: birinchisi qiyosiy nazorat guruhi bo‘lib toza oziqa bilan boqildi.

Ikkinci tajriba guruhi quyonlariga biostimulyatorlik xususiyatiga ega bo‘lgan Vinoral preparatidan tavsiyanomasiga asosan quyonlarning 10 kun davomida 0,5 ml/2l ichimlik suviga solinib ichirildi.

Uchinchi tajriba guruhining quyonlariga esa Spektra vit A D<sub>3</sub>E-122 preparatidan 7 kun davomida 0,5 ml/1l ichimlik suviga solinib ichirildi.

Turtinchi tajriba guruhining quyonlariga esa 30 kun davomida Introvit preparatidan 2.5gr/kg yemga qushib berildi. Qo‘llanilgan biostimulyatorlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari 30 kunlik tajriba davrida quyonlarning saqlanuvchanlik darajasiga qarab va tajriba oxirida urtacha bir bosh quyonning tirik vaznining oshishiga qarab baholandı. Tajriba davomida olingan natijalar 2.2.1– jadvalda keltirilgan.

### Quyonlarning o‘sib va rivojlanishiga biostimulyatorlarning ta’siri

1-jadval

Nº	Guruhlar nomi	Preparat-lar nomi	Dozasi	Quyon larning bosh soni	Saqlan uv-chanaligi (%)	Bir bosh quyonning tirik vazni (gr)	Farqi ( $\pm$ g)
1	Qiyosiy nazorat	-	-	10	91,4	400	-
2	Tajriba	Vinoral	0.5ml/2l suv bilan 10 kun	10	100	620	+62
3	Tajriba	Spektra vit A D <sub>3</sub> E-122	0.5ml/1 suv bilan 7-kun	10	100	840	+84
4	Tajriba	Introvit	2.5gr/kg yemga 30 kun	10	100	1060	+106

Olib borilgan 30 kunlik laboratoriya tajribasining natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchi qiyosiy nazorat guruhidagi quyonlarning saqlanuvchanlik darajasi 91,4% ni, urtacha bir bosh quyon tirik vaznining o'sishi 400 % ni tashkil qildi.

Ikkinchchi tajriba guruhidagi quyonlar Vinoral vitaminli premiks qo'llanmasiga asosan 21 suvgaga 0,5 ml 1 kunligidan boshlab to 10 kunligigacha uzlusiz ravishda suv bilan ichkanlarida ularning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ni va tajriba oxirida urtacha bir bosh quyon tirik vazning o'sishi 620 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich qiyosiy nazorat guruhidagi quyonlarning har bir boshining tirik vaznidan 62 g ga kupdir.

Uchinchi tajriba guruhidagi quyonlar Spektra vit A D<sub>3</sub>E-122 vitaminli premiks qo'llanmasiga asosan 0,5ml/l suv bilan 1 kunligidan boshlab to 7 kunligigacha uzlusiz ravishda suv bilan ichkanlarida ularning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ni va tajriba oxirida urtacha bir bosh quyon tirik vazning o'sishi 840 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich qiyosiy nazorat guruhidagi quyonlarning har bir boshining tirik vaznidan 84 g ga kupdir.

To'rtinchi tajriba guruhidagi quyonlar Introvit preparatini 30 kun davomida 2,5 gr/kg oziqa bilan berilganda ularning ham saqlanuvchanlik darajasi 100 % larni, hamda tajriba oxirida urtacha bir bosh quyonning tirik vazni o'sishi 1060 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich qiyosiy nazorat guruhidagi quyonlarning o'rtacha har bir boshining tirik vaznidan 106 g ga kupaygan.

**Xulosa.** Shunday qilib, olingan laboratoriya tajribalarining natijalaridan xulosa qilinganda qo'llanilgan barcha biostimulyatorlik xususiyatiga ega bo'lgan preparatlar quyonlarning saqlanuvchanlik darajasini 100% ga saqlabgina qolmasdan har bir quyonlar tirik vaznining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatar ekan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Александров В. Н. Продуктивность сукрольных и лактирующих крольчих в зависимости от энергетического питания кроликов / В. Н. Александров, В. С. Александрова, Т. Л. Чичикова //Кролиководство и звероводство. 2003. - № 3. - С. 12-14
2. Балакирева Н.А., В.Ф. Кла-довщикова /Нормы кормления и нормативы затрат кормов для пушных зверей и кроликов. Справочное пособие/ Под редакцией // 2007. 185 с
3. Востроилов А.В., Е.Е.Курчаева, В.Л. Пацэнко. Продуктивные качества кроликов при введении в рацион пробиотического препарата Ветом 3.0. Вестник Воронежского государственного аграрного университета 2018. №2 (57) 76-82 С.
4. Куликов Н.Е. Коррекция питательности полнорационных комбикормов для кроликов премиксами. Кролиководство звероводство, 2017, №3, стр. 39-44
5. Квартникова Е.Г. Витаминное питание плотоядных пушных зверей. Издательство КлабПринт, Москва, Россия, 2017

6. Эшимов, Д., Кувватов, Х. А., Исломов, Х. И., Рахмонов, Ф. Х., & Шоумурадов, М. (2021). Сравнительная активность кокцидиостатиков при эймериозе кур. *Экономика и социум*, (5-2 (84)), 666-669.
7. Islomov, K. I., Eshimov, D., Rakhmonov, F. K., Kuvvatov, H. A., & Shomurodov, M. (2021). Study of the influence of medicinal preparations used in experimental eimeriosis of chickens on morphological indications of blood. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1480-1484.
8. Bayqulov, A. K., Islomov, X. I., & Rahmonov, F. X. (2023). Eksperimental giperkolesterolemiyada qondagi gomosistein mazmuni bilan endoteliy disfunksiyasiga bog'liligiga izoh. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 455-461.
9. Rakhmonov, F., Eshimov, D., Islomov, K., Ubaydullaeva, G., & Hayitova, B. (2024). The effect of Chitosan and whey powder on the weight of broiler chickens. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01025). EDP Sciences.
10. Rahmonov, F. X., Eshimov, D., & Islamov, X. I. (2023). Effect Of Chitosan and Whey Powder on The Physiological Status of Broiler Chicks Fed. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 22, 70-73.
11. Egamberdiyev, K. E., Raxmonov, F. X., & Islomov, X. I. (2022). ENDEMIK IKTEROGEMOGLOBINURIYANING BIOKIMYOVIY MEXANIZMLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 338-342.
12. Holbayevich, R. F., Dusmurod, E., Iskanderovich, I. K., Bakhridinobna, U. G., & Amirovna, N. B. (2024). EXPLANATION ON THE PHYSIOLOGICAL AND BIOCHEMICAL INDICATORS OF BROILER CHICKS FED WITH CHITOSAN AND WHEY POWDER. *Academia Repository*, 5(2), 184-187.
13. Davlatbaeva, I. F., Davlatbay, I., & Dusmurat, E. (2021). Effectiveness of Coccidiostatics Used in Chicken Coccidiosis and Effect on Morphological Indications of Blood. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(5), 151-154.
14. Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., Тошмуродов, Д., & Шомуродов, М. (2022). Влияния эймериостатиков на формирования иммунитета против болезни и на морфологические показатели роги кур. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 363-368.
15. Ibragimova, F. (2022). OQUVCHILARGA CHET TILINI ORGATISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(1), 691-698.
16. Safin, M., Ibragimov, D., & Ibragimova, F. (2024). Discussion of the biochemical mechanisms of copper deficiency in Karakul sheep bred in the Hungry Steppe and its prevention. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01048). EDP Sciences.

17. Safin, M., Ibragimov, D., & Ibragimova, F. (2024). Discussion of the biochemical mechanisms of copper deficiency in Karakul sheep bred in the Hungry Steppe and its prevention. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01048). EDP Sciences.
18. Ibragimova, F. D., Daminov, A. S., & Mamadullayev, G. X. (2024). FENSID SINERGITIK ARALASHMALI PREPARATNING TOVUQLAR EYMERIOZIGA QARSHI SAMARALI MIQDORINI VA FAOLLIGINI ANIQLASH. *Yangi O 'zbekiston ustozlari*, 2(2), 46-50.
19. Алияров, Д., Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Тошмуродов, Д. (2021). Влияние иммуномодуляторов на физиологическое состояние организма птиц.
20. Тошмуродов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Алияров, С. (2021). Влияние транквилизаторов на морфологические показатели крови цыплят.
21. Ибрагимова, Ф., Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., & Алияров, С. (2022). Эффективность некоторых кокциостатиков при эймериозе птиц и их влияния на интенсивности инвазии. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 358-362.
22. Ibragimova, F. D., Daminov, A. S., & Mamadullayev, G. X. (2022). TOVUQLAR EYMERIOZI KOLIBAKTERIOZ BILAN ARALASH KECHISHINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA ISHLATILADIGAN FENSID PREMIKS SINERGITIKAR ALASHMALI PREPARATNING O 'TKIR VA SURUNKALI ZAHARLILIK DARAJASINI ANIQLASH. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMYJURNALI*, 106-110.
23. Ibragimova, F., Ibragimov, D., Daminov, A., & Mamadullaev, G. (2024). The influence of drugs with a synergistic mixture of phencides on the intensity of invasion, morphological blood parameters and leukocyte formula in chicken eimeriosis mixed with colibacillosis. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 118, p. 01007). EDP Sciences.